

**OTA VA FOJIA: ULUG’BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANI VA SAID
AHMADNING “UFQ” ROMANIDAGI OTA OBRAZLARINING QIYOSIY
TAHLILI**

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JDPU FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI YO‘NALISHI
3-BOSQICH 611-23-GURUH TALABASI
O‘NG‘AROVA ELMIRA

ANNOTATSIYA: Maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani Po‘latjon va Said Ahmadning “Ufq” romanidagi Ikromjon obrazlari qiyosiy tahlil qilinadi. Polatjon – qizi Sevinchning tug‘ruqxonada farzandli bo‘lganligi eshitib, gapning tag ma‘nosini tushunmay g‘azablanib qizini pichoqlab o‘ldirgan ota. Ikromjon – o‘g‘lining harbiy xizmatdan qochib, vatan burchiga xiyonat qilgani uchun og‘ir ruhiy iztirob chekib, o‘g‘lining jasadiga o‘zi go‘r qazigan ota. Ikkala asarda ham ota obrazi fojia markazida, nomus, burch va jaholat masalalari badiiy talqin qilinadi. Tadqiqotda adabiyotshunos olimlarning asarlari, psixanalitik nazariyalar va ramziy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: ota obrazi, “Ota”, “Ufq”, Po‘latjon, Ikromjon, qiyosiy tahlil, nomus, burch, jaholat, arxetip.

KIRISH

O‘zbek adabiyotida ota obrazi nafaqat oila boshlig‘i, balki axloqiy mezon, mas‘uliyat, vatanparvarlik va nomus timsoli sifatida keng badiiy talqin etilgan. Adabiyotshunos olim U. Normatov ta’kidlaganidek, “adabiy obraz va badiiy tafakkur”ning uyg‘unligida ota obrazi orqali milliy qadriyatlar tizimining chuqur qatlamlari ochiladi¹. Psixolog Kar Gustav Yung esa “arxetiplar va kollektiv ongsizlik” nazariyasida ota arxetipi insoniyatning umuminsoniy kollektiv xotirasidagi eng qadimiy va ta’sirchan obrazlardan biri ekanligini ta’kidlagan². XX asr o‘zbek nasrining yirik namoyandasi Said Ahmadning “Ufq” romani hamda zamonaviy yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani ota obrazi ana shu arxetipal chuqurlikda talqin qilingan. Ikkala asarda ham ota farzand taqdiri bilan bog‘liq holda og‘ir ruhiy ziddiyatlar va fojialar markazida tasvirlanadi.

Mazkur maqolada aynan shu ikki obraz – Po‘latjon (“Ota”) va Ikromjon (“Ufq”) – qiyosiy tahlil qilinadi. Maqsad – ikkala ota obrazining o‘xshash va farqli jihatlarini ilmiy asosda aniqlash, shuningdek, ular orqali ifodalangan nomus, burch va jaholat kabi tushunchalarning badiiy talqinini ochib berish.

¹ U. Normatov. Adabiy obraz va badiiy tafakkur. Toshkent: Fan, 1998. – 156 b.

² Karl Gustav Yung. Arxetiplar va kollektiv ongsizlik. Toshkent: Sharq, 2005. – 240 b.
www.innovativepublication.uz



ADABIYOTLAR TAHLILI

1. Ulug‘bek Hamdam – “Ota “ramoni Po‘latjon obrazi Ulug‘bek Hamdam (Hamdamov Ulug‘bek Abduvahobovich) 1968-yilda Andijon viloyati Marhamat tumanida tug‘ilgan, o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lib, uning asarlari o‘zbek milliy adabiyotiga yangi nafas olib kirgan. “Ota” romani uning eng mashhur asarlaridan biri sifatida adabiyotshunoslar tomonidan katta e‘tibor bilan o‘rganilmoqda. Adabiyotshunos M.Imamberdiyeva “Ota” romanining konseptual asoslarini tahlil qilar ekan, “asarda inson hayoti, oilaviy qadriyatlar, ota obrazi va jamiyatdagi axloqiy-ruhiy muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlik badiiy jihatdan ko‘rib chiqilgan”ligini ta’kidlaydi³. Shuningdek, muallif “ota arxetiplari, psixologik realizm, ramziy va falsafiy obrazlar, narrativ struktura, adabiy tafakkur” kabi konseptual vositalardan mahorat bilan foydalangan. Po‘latjon – qishloq oqsoqoli, hurmatli, obro‘li kishi. Qizi Sevinch bolaligida kuyish natijasida yuzida chandiqlik paydo bo‘lgan. Qizi tibbiyot institutini tugatib, o‘z hududida ishlaydi, tajriba orttirish maqsadida chet el safarlariga chiqadi. Asarning asosiy ziddiyati Polatjonning qo‘shnisi orqali eshitgan xabaridan kelib chiqadi: qizi Asakadagi tug‘ruqxonada farzand tug‘ayotganligi haqidagi eshitganidan keyin, Po‘latjon jahl bilan uyga keladi, onasining tushuntirishlariga qaramay, tug‘ruqxonaga boradi va qizining bo‘g‘zidan qornigacha pichoq tortadi. Sevinch vafot etadi. Po‘latjon qamoqqa tushadi, keyinchalik haqiqatni bilib oladi: qizi turmushga chiqqan edi va bolasi harom emas edi. Tadqiqotchi N.Sh.Tosheva “The Harmony of National Values in the Novel ‘Father’ by Ulugbek Hamdam” nomli maqolasida romanda “ma’naviy-axloqiy, falsafiy-estetik qadriyatlarning uyg‘unligi, shaxs va jamiyat munosabatlari” chuqur yoritilganligini ta’kidlab, Po‘latjon timsolida buzilgan nomus tushunchasining fojiali oqibatlarini ochib beradi⁴. Yana bir tadqiqotda qayd etilishicha, “Ulug‘bek Hamdam va Isajon Sulton asarlarida ota obrazining psixologik tasvir mahorat bilan ifodalanishi kuzatiladi”⁵. Zaripova Muxlisa Xamid qizining fikricha, “Ulug‘bek Hamdamning ‘Ota’ romani o‘zining milliylikni o‘zida aks ettirgan hikoyasi orqali zamonamizning ijtimoiy va ma’naviy muammolarini yoritadi”. Shu bilan birga, asarda qahramonlarning ichki kechinmalari, xotira tasvirlari va konfliktli holatlar mahorat bilan ifodalangan.

2. Said Ahmad – “Ufq” romanidagi Ikromjon obrazi Said Ahmad (Husanxo‘jayev) – O‘zbekiston xalq yozuvchisi, O‘zbekiston Qahramoni. Uning “Ufq” romani 1967-1974 yillar orasida yaratilgan bo‘lib, XX asr o‘zbek xalqining tarixiy hayotini badiiy yoritadi. Adabiyotshunos A.N.Qodirova ta’kidlaganidek, “Said Ahmadning ‘Ufq’ romanida

³ M. Imamberdiyeva. ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANI KONSEPTI TAHLILI. Теоретические аспекты становления педагогических наук, 4(1), 2025. – 185–187.

⁴ Nilufar Sh. Tosheva. THE HARMONY OF NATIONAL VALUES IN THE NOVEL “FATHER” BY ULUGBEK HAMDAM. Oriental Journal of Philology, 2(3), 2022. – 45–52.

⁵ Nilufar Oqiljon qizi Avazova, Oyjamol Jasur qizi Jalilova. ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAVSIFI. Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences International scientific-online conference, 1(5), 2024. – 112–115.
www.innovativepublication.uz



tasvirlangan qahramonlarning murakkab hayotiy yo‘llari, ularning ruhiy kechinmalari, ‘Katta Farg‘ona kanali’ qurilishida ko‘rsatilgan jasoratlar, urush yillarida o‘zbek xalqining insoniy fazilatlarini” badiiy talqin etilgan⁶. Ikromjon – kanal qazilishida va urushda qatnashgan, o‘z burchiga sadoqatli, vatanparvar inson. Romanning asosiy ziddiyati uning o‘g‘li Tursunboyning harbiy xizmatdan qochishi, vatan burchiga xiyonat qilishi bilan boshlanadi. “Ufq” romani “Vatan, unga bo‘lgan sadoqat, fuqorolik burchi, mas’uliyati haqidagi o‘lmas mavzular”ni ko‘targan asar sifatida e’tirof etiladi. Ubaydullayeva Gulbahor Fozil qizi va X.Q.Hamroqulovning “Otalik mehrining narxi: vijdon sahifalarida bitilgan imtihon” nomli maqolasida Ikromjon obrazi atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotchilar fikricha, “roman orqali sadoqatli, halol, sabrli va sharaflil otaning qalbidagi orzular qanday parchalanib, ularning haqiqatga aylana olmay, ichki azobga aylanishi badiiy tahlil qilgan”⁷. Ikromjon timsolida “o‘zbek xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlari, ularning axloqiy me’yorlari, sabr va mehr-muhabbatga asoslangan otalik tarbiyasi yorqin ifodalangan” bo‘lsa, Tursunboy esa “bu mehr-muhabbatni inkor etuvchi, otasining fidoyiligini qadrlamaydigan farzand sifatida tasvirlanadi”. Asarning mashhur sahnasida Ikromjon o‘g‘liga qarata o‘q uzadi, ammo o‘q tegmaganini ko‘rib, “Xayriyat, tegmabdi” deydi. Bu o‘rinda “Said Ahmad romanda Ikromjonning Ota va Inson sifatidagi tuyg‘ulari va iztiroblarini” mahorat bilan tasvirlaydi. Roman yakunida esa o‘g‘lining jasadiga o‘z qo‘li bilan go‘r qazib ko‘madi. Sahnadagi talqinda esa rejissiyor Marat Azimov bu epizodni “o‘g‘lini otib o‘ldirish” shaklida talqin etgan bo‘lsa-da, “romanda ilgari surilgan g‘oyani ifodalay oladi”. Tadqiqotchi S.D.Ahmadjonova “Ufq” romanidagi obrazlar talqiniga bag‘ishlangan maqolasida asarda “insonning ichki dunyosi, ma’naviy qidiruvlari va hayotdagi turli to‘qimali mavzular chuqur badiiy uslubda ifodalangan”ligini, qahramonlarning “ruhiy kechinmalari, dialoglari va harakatlari orqali o‘quvchiga hayotning murakkab tomonlarini anglash imkonini berishini” qayd etadi. Shuningdek, romanda “ufq (ko‘zgu) ramzi orqali inson ongi, haqiqatni anglash va o‘zini o‘rganish kabi mavzular yoritiladi”⁸.

3. Ikkala asarning qiyosiy tahliliy asoslari: Adabiyotshunoslikda ota obrazi ko‘pincha “nomus”, “burch”, “or” tushunchalari bilan birga talqin qilinadi. Yungning arxetiplar nazariyasiga ko‘ra, ota arxetipi “otaning himoyasi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi va hokimiyat kabi universal insoniy tajribalarni ifodalaydi”. Polatjon va Ikromjon obrazlari aynan shu tushunchalarning ikki xil – johilona va ongli – qo‘llanishini aks ettiradi. Polatjon mish-mishga ishonib, tekshirmasdan harakat qilsa, Ikromjon haqiqatni bilib turib, qasddan o‘q uzadi, lekin tegishinini xohlamaydi. Ikkala holatda ham ota farzandining o‘limiga sababchi

⁶ Aziza Nurillayevna Qodirova. SAID AHMADNING “UFQ” ROMANIDAGI VOQEALAR RIVOJI TAHLILI. JOURNAL OF IQRO, 15(02), 2025. – 832-833.

⁷ Rustamjon Ortiqov. ANALYSIS OF MONOLOGUES IN "OTA" BY ULUGBEK HAMDAM. Scientific Journal of the Fergana State University, 29(6-TOM), 2024. – 25

⁸ So‘najan Dilmurod qizi Ahmadjonova. SAID AHMADNING "UFQ" ROMANIDAGI OBRAZLAR TALQINI. TADDIQOTLAR, 68(1), 2025. – 280-284.
www.innovativepublication.uz



bo‘ladi, biroq sabablar va ruhiy kechinmalar tubdan farq qiladi. Toshevaning ta’kidlashicha, “Ota” romanida “milliy qadriyatlar va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga munosabat hamda yangi davr insonining ruhiy olami muammosi” yoritilgan. “Ufq” romaniga bag‘ishlangan tadqiqotlarda esa “insonning ijtimoiy, psixologik va falsafiy muammolari, shaxsiy va ijtimoiy o‘zgarishlari” tahlil qilinadi⁹.

NATIJASI

Tahlil natijasida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

O‘xshashliklar:

- Ikkala ota ham farzand taqdiri bilan bog‘liq og‘ir vaziyatga tushadi;
- Ikkalasi ham o‘z harakatlari natijasida farzandining o‘limiga sabab bo‘ladi: Po‘latjon bevosita pichoqlab o‘ldirgan; Ikromjon o‘q uzgan va keyinchalik o‘g‘li o‘ladi – bu bilvosita sababdir;
- Ikkala asarda ham ota obrazi “nomus”, “burch”, “or-nomus” kabi tushunchalar bilan bog‘liq holda talqin qilinadi;
- Ikkala asar ham o‘zbek adabiyotidagi “ota arxetipi”ni turli qirralardan ochib beradi.

Farqli jihatlari:

Birinchiidan, harakatning asosi va xususiyatida farq bor. Po‘latjon mish-mish ishonib va bir lahzalik g‘azab bilan, hech qanday tekshiruvsiz harakat qiladi. U xotining tushuntirishlariga quloq solmaydi, shifokorlarning to‘sqinligiga qaramay, qizini pichoqlaydi. Ikromjon esa haqiqatni bilib turib, og‘ir ichki kurashdan so‘ng o‘q uzadi. Uning harakati ongli, qasddan, ammo ruhan juda og‘ir kechgan qarordir. Ikkinchiidan, huquqiy va ma’naviy oqibatlarida farq bor. Po‘latjon o‘z qilmishi uchun qamoq jazosiga hukm qilinadi, qonun oldida jinoyatchi hisoblanadi. Ikromjon esa qonun oldida hech qanday javobgarlikka tortilmaydi, uning azobi butunlay ma’naviy va ruhiy xarakterga ega. Uchinchiidan, fojia manbai turlicha. Polatjonning fojiasi jaholat va g‘iybat mahsulidir. U qamoqdan chiqqandan keyin haqiqatni bilib, qizining turmush qurganligini va bolasi halol ekanligini anglaydi, ammo bu kech bo‘ladi. Ikromjonning fojiasi esa vatan burchi va otalik mehrining o‘rtasidagi yechilmas ziddiyatdan kelib chiqadi. U har bir qadamining oqibatini bilib turadi va shu bilan birga otalik qalbi iztirob chekadi. To‘rtinchiidan, obrazlarning qiyofasi va ular orqali ifodalangan g‘oyalar farq qiladi. Po‘latjon – buzilgan “nomus” tushunchasi, jaholat va g‘iybatning qurboni bo‘lgan ota. Ikromjon esa vatan burchini hamma narsadan ustun qo‘ygan, ammo o‘g‘liga bo‘lgan muhabbati so‘nmagan fojiali ota. Tadqiqotlarning umumiy xulosalari: Imamberdiyevaning qayd etishicha, “Ota” romanida “muallif oila orqali millat va jamiyatning barqarorligini, avlodlar o‘rtasidagi uzviylikni yoritib beradi. Bunda muallif zamonaviy davrda inson o‘zligini yo‘qotmasligi kerakligini urg‘ulaydi”. “Ufq” romaniga oid

⁹ Aziza Nurillayevna Qodirova. SAID AHMADNING “UFQ” ROMANIDAGI VOQEALAR RIVOJI TAHLILI. JOURNAL OF IQRO, 15(02), 2025. – 832-833.
www.innovativepublication.uz



tadqiqotlarda esa “vijdon, qadr-qimmat, burch va halollik kabi tushunchalar badiiy talqin qilinishi, ular zamonaviy oila va tarbiya muammolari bilan chambarchas bog‘langan”ligi ta’kidlanadi.

MUHOKAMASI

Po‘latjon va Ikromjon obrazlarini qiyoslaganda, asosiy muhokama masalasi – “nomus” va “burch” tushunchalarining turli talqinidir.

Jaholat va nomus masalasi. Po‘latjon misolida, jamiyatdagi g‘iybat va “qizning otasiga nomusi” tushunchasi qanchalik halokatli bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Tosheva fikricha, romanda “shaxs va jamiyat munosabatlari, muhitning inson taqdiriga ta’siri” kabi falsafiy muammolar yoritilgan. Po‘latjon o‘z qizining haqiqiy ahvolini bilishga ham urinmaydi, chunki uning uchun “jamiyat aytgan” haqiqatdan ham muhimroqdir. Bu esa Ulug‘bek Hamdam asarlarida tez-tez uchraydigan “hayotning oddiy jihatlaridan katta xulosalar chiqarish va o‘quvchini fikrlashga undash” uslubining yorqin misolidir. Muallif g‘iybatning qanday qilib bir oilani butunlay vayron qilishini, bir lahzalik g‘azab va o‘ylamasdan qilingan harakat o‘nlab yillik otalik mehridan ustun kelishining fojiasini ko‘rsatadi.

Burch va muhabbat ziddiyati. Ikromjon misolida esa, vatan burchi shaxsiy otalik mehridan ustun qo‘yilgan. Shu bilan birga, muallif buni quruq va shafqatsiz qilib ko‘rsatmaydi. “Xayriyat, tegmabdi” degan so‘zlar va go‘r qazish sahnasi Ikromjonning ichki iztiroblarini ochib beradi. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, “Ikromjon timsolida sabr va mehr-muhabbatga asoslangan otalik tarbiyasi yorqin ifodalangan”. Shunday qilib, Said Ahmad qahramoni fojiasi – burch va muhabbat o‘rtasidagi yechilmas ziddiyatdir. U o‘z qo‘li bilan o‘g‘liga o‘q uzadi, lekin o‘q tegmasligini chin dildan xohlaydi. Keyin esa o‘g‘lining jasadiga o‘zi go‘r qazib, uni ko‘madi. Bu harakatlarda nafrat emas, balki cheksiz muhabbat va og‘riq bor.

Badiiy uslub va psixologizm. Ikkala asarning badiiy uslubini taqqoslaganda, Ulug‘bek Hamdam “o‘ziga xos adabiy tili, ruhiy holatlarni aniq tasvirlash mahorati va hayotiy voqealarni o‘ziga xos badiiy bo‘yoqlar bilan tasvirlay olish qobiliyati bilan ajralib turadi”¹⁰. U zamonaviy, keskin syujetli qissa orqali o‘quvchini hayratda qoldirishga intiladi. “Ota ramoni”da voqealar juda tez rivojlanadi, mish-mish eshitilgandan to fojia sodir bo‘lguncha bir necha soat o‘tadi. Bu esa o‘quvchiga Po‘latjonning jahl va afsuslanishini yanada kesinroq his qilish imkonini beradi. Said Ahmad esa epik roman janrida voqealarni asta-sekin rivojlantirib, psixologizmga asosiy urg‘u beradi. Asarning “qahramonlarning ruhiy kechinmalari, dialoglari va harakatlari orqali hayotning murakkab tomonlarini anglash” imkonini berishi uning badiiy mahoratining yorqin ifodasidir. “Ufq” romanida Ikromjonning ichki kechinmalari, o‘g‘li bilan bo‘lgan munosabatlari, uning tarbiyasidagi kamchiliklarni o‘zida izlashi uzoq epizodlar davomida ochib boriladi.

¹⁰ Muxlisa Xamid qizi Zaripova, Nodira Gulmirzayevna Allamberganova. ULUG‘BEK HAMDAMNING OTA ROMANIGA MILLIY CHIZG‘ILAR. *Международный журнал теории новейших научных исследований*, 2(12), 2024. – 82–88. www.innovativepublication.uz



Milliy qadriyatlar talqini. Ikkala asarda ham milliy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. “Ota” romanida “muallif o‘zbek milliy qadriyatlarini obrazlar talqinida samarali qo‘llagan”. Po‘latjonning qilmishi aynan “nomus” tushunchasining o‘ta qattiq va noto‘g‘ri talqinidan kelib chiqadi. “Ufq” romanida esa “o‘zbek adabiyotida yetakchi o‘rin tutuvchi asar sifatida insonning ichki dunyosi, ma‘naviy qidiruvlari” talqin qilingan. Ikromjon qilmishining zamirida “Vatan” tushunchasining muqaddasligi va unga xiyonatning kechirilmasligi kabi milliy qadriyatlar yotadi. Ikkala yozuvchi ham ota obrazini fojia markaziga qo‘ygani bilan birgalikda, asarlarning yakuni o‘quvchini chuqur tafakkurga chorlaydi. Po‘latjon o‘z xatosini kech anglab, qolgan umrini nabirasiga bog‘lashga urinadi, ammo nabira yetimxonada o‘sgan. Ikromjon esa o‘z qo‘li bilan go‘r qazigan o‘g‘lining oldida tunaydi. Bu yakunlar o‘quvchini biror narsani kechiktirmaslik, haqiqatni tekshirish, burch va muhabbat o‘rtasidagi muvozanatni topish zarurligi haqida o‘ylashga undaydi.

XULOSA

Ulug‘bek Hamdamning “Ota ramoni” va Said Ahmadning “Ufq” romanidagi ota obrazlari o‘zbek adabiyotida otalik, nomus, burch va mas‘uliyat kabi masalalarning badiiy talqinida muhim o‘rin tutadi. Imamberdiyevaning fikricha, “Ota” romani “oilaviy qadriyatlar, ota obrazi va jamiyatdagi axloqiy-ruhiy muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlikni” ochib bergan. Po‘latjon obrazi jaholat va g‘iybatning qanchalik halokatli oqibatlariga olib kelishini ko‘rsatsa, Ikromjon obrazi vatan burchi va otalik mehrining murakkab va fojiali uyg‘unligini ifodalaydi. Ikkala obraz ham o‘quvchini otalik mas‘uliyatining og‘irligi, har bir qarorning ahamiyati va haqiqatni bilish zarurligi haqida jiddiy o‘ylashga undaydi. Zamonaviy va klassik adabiyotdagi bu ikki ota timsoli o‘zbek milliy mentalitetidagi “nomus” tushunchasining ikki xil – buzilgan va yuksak – qutbini ifodalaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “vijdon, qadr-qimmat, burch va halollik kabi tushunchalarning badiiy talqini zamonaviy oila va tarbiya muammolarini tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi”¹¹. Kelgusida ushbu ikki asarni gender tadqiqotlari, sotsiologik va psixoanalitik yondashuvlar asosida o‘rganish ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shuningdek, “Ota” ramoni nomi “Ota taronasi” ma‘nosini berib, o‘zbek xalq qo‘shiqchiligi an‘analariga ishora qiladi – bu ramz orqali muallif baxtli va fojiali otalikning o‘ziga xos “kuy”ini ifodalamoqchi bo‘lgan. “Ufq” ramzi esa inson hayotining cheksiz imkoniyatlari va maqsadlari sari intilishni anglatadi. Ikkala ramziy ma‘no ham ota obrazining badiiy talqinini boyitadi.

¹¹ Gulbahor Fozil qizi Ubaydullayeva, X.Q.Hamroqulova. OTALIK MEHRINING NARXI: VIJDON SAHIFALARIDA BITILGAN IMTIHON (Said Ahmadning “Ufq” romanidagi Ikromjon va Tursunboy obrazlari talqinida). TADDIQOTLAR, 15(3), 2025. – 120–125.
www.innovativepublication.uz

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. U. Normatov. Adabiy obraz va badiiy tafakkur. Toshkent: Fan, 1998. – 156 b.
2. Karl Gustav Yung. Arxetiplar va kollektiv ongsizlik. Toshkent: Sharq, 2005. – 240 b.
3. M. Imamberdiyeva. ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANI KONSEPTI TAHLILI. Теоретические аспекты становления педагогических наук, 4(1), 2025. – 185–187.
4. Nilufar Sh. Tosheva. THE HARMONY OF NATIONAL VALUES IN THE NOVEL “FATHER” BY ULUGBEK HAMDAM. Oriental Journal of Philology, 2(3), 2022. – 45–52.
5. Nilufar Oqiljon qizi Avazova, Oyjamol Jasur qizi Jalilova. ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAVSIFI. Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences International scientific-online conference, 1(5), 2024. – 112–115.
6. Muxlisa Xamid qizi Zaripova, Nodira Gulmirzayevna Allamberganova. ULUG‘BEK HAMDAMNING OTA ROMANIGA MILLIY CHIZG‘ILAR. Международный журнал теории новейших научных исследований, 2(12), 2024. – 82–88.
7. Aziza Nurillayevna Qodirova. SAID AHMADNING “UFQ” ROMANIDAGI VOQEALAR RIVOJI TAHLILI. JOURNAL OF IQRO, 15(02), 2025. – 832-833.
8. Rustamjon Ortiqov. ANALYSIS OF MONOLOGUES IN "OTA" BY ULUGBEK HAMDAM. Scientific Journal of the Fergana State University, 29(6-TOM), 2024. – 25.
9. Gulbahor Fozil qizi Ubaydullayeva, X.Q. Hamroqulova. OTALIK MEHRINING NARXI: VIJDON SAHIFALARIDA BITILGAN IMTIHON (Said Ahmadning “Ufq” romanidagi Ikromjon va Tursunboy obrazlari talqinida). TADQIQOTLAR, 15(3), 2025. – 120–125.
10. Said Ahmad. Ufq (Trilogiya). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. – 686 b.
11. So‘najan Dilmurod qizi Ahmadjonova. SAID AHMADNING "UFQ" ROMANIDAGI OBRAZLAR TALQINI. TADQIQOTLAR, 68(1), 2025. – 280-284.
12. Ulug‘bek Hamdam. Ota ramoni. Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022. – 208 b.